



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI
BOSHQARISH AGENTLIGINING
YAGONA AKSIYADOR (ISHTIROKCHI) QARORI**

20²³-yil 05 - iyul

94/09-3-qr -sonli

Toshkent shahri

**“O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatining
2022-yil moliya-xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yildagi 21-apreldagi PQ – 5083-son qarori, “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ kuzatuv kengashi majlisining 2022-yil 1-dekabrda 5-son, 2023-yil 25-maydagi 6-son hamda 2023-yil 23-iyundagi 7-son qarorlari va “O‘zbek geologiya qidiruv” AJning 2023-yil 26-iyundagi 01-14-593-son murojaatiga asosan Davaktiv agentligi **qaror qiladi**:

1. Quyidagilar:

“O‘zbek geologiya qidiruv” AJning (*keyingi o‘rinlarda – jamiyat*) 2022-yil yakuni buyicha:

- **sof tushumi** 902,1 mlrd. so‘mni tashkil etganligi va o‘tgan yilning mos davriga (*467,7 mlrd. so‘m*) nisbatan 92,8 foizga va belgilangan rejaga (*816,2 mlrd. so‘m*) nisbatan 10,5 foizga ko‘payganligi;

- **mahsulot (xizmatlar) tannarxi** 775,7 mlrd. so‘mni tashkil etgan yoki tannarxning sof tushumdagi ulushi 86,0 foizni tashkil etgan, bunda tannarx o‘tgan yilning mos davriga (*83,6 foiz*) nisbatan o‘rtacha 2,4 foizga ko‘payganligi;

- **davr xarajatlari** 125,1 mlrd. so‘mni tashkil etgan va o‘tgan yilning mos davriga (*54,7 mlrd. so‘m*) nisbatan 128,7 foizga va belgilangan rejaga (*103,4 mlrd. so‘m*) nisbatan 21,0 foizga ko‘payganligi;

- **sof foydasi** 20,2 mlrd. so‘mni tashkil etgan va o‘tgan yilning mos davriga (*22,3 mlrd. so‘m*) nisbatan 9,6 foizga va belgilangan rejaga (*43,8 mlrd. so‘m*) nisbatan 54,0 foizga kamayganligi;

- **debitorlik qarzdorliklari** 186,9 mlrd. so‘mni tashkil etgan va yil boshiga (*145,6 mlrd. so‘m*) nisbatan 28,3 foizga ko‘payganligi;

- **joriy kreditorlik qarzdorliklari** 100,4 mlrd. so‘mni tashkil etgan va yil boshiga (*164,8 mlrd. so‘m*) nisbatan 39,1 foizga kamayganligi;

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-yanvardagi 06/1-1022-son topshirig'i bilan jamiyat kuzatuv kengashi tarkibini yangidan shakllantirish choralarini ko'rish topshirilganligi;

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-noyabrdagi 647-son qarorining 7-bandi talablariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktyabrdagi PF-6096-son Farmonining 1 va 2-illovalariga kiritilgan korxonalar kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo'yicha nomzodlar tarkibi Davaktiv agentligi tomonidan ushbu korxonalarda davlat nomidan mulkdor (muassis, aksiyador, ishtirokchi) funksiyalarini bajaruvchi vazirlik, idoralar hamda Strategik islohotlar agentligi bilan kelishilgan holda shakllantirilishi belgilanganligi;

jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga nomzodlar tarkibi shakllantirilib, belgilangan tartibda Strategik islohotlar agentligi bilan kelishilganligi;

jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a'zolar Davaktiv agentligi tomonidan Jahon bankining "IBL" loyihasi doirasida jalb qilingan "Strikitsa Consulting" Ltd (headhunter) kompaniyasi takliflari asosida shakllantirilishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi PQ-5083-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"da "O'zbek geologiya qidiruv" AJga "PwC" (Pricewaterhouse Coopers) xalqaro konsalting tashkilotini jalb qilgan holda operatsion samaradorlikni oshirish hamda o'rta va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish topshirig'i berilganligi;

PricewaterhouseCoopers xalqaro konsalting tashkiloti tomonidan jamiyatning operatsion samaradorlikni oshirish, o'rta va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi ishlab chiqilib, jamiyat kuzatuv kengashi majlisining 2023-yil 25-maydagi 6-son bayoni bilan ma'qullanganligi;

jamiyatning 2022-yil yakunlari bo'yicha moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yakunlariga ko'ra, jamiyatning taftish komissiyasi tomonidan xulosa tayyorlanganligi;

jamiyatning 2022-yil yakuni bo'yicha moliyaviy hisobotlari haqqoniyligi yuzasidan "EXPERT AUDIT" MChJ auditorlik tashkilotining ijobiy xulosasi olinganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi PQ-5083-son qarorining 5-bandiga muvofiq, **davlat dasturlari doirasida** Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi buyurtmasiga asosan amalga oshiriladigan geologiya-qidiruv ishlariga shartnomalar asosida vazirlik tomonidan yo'naltiriladigan mablag'lar geologiya sohasi tashkilotlari **ustav fondiga kapitalizatsiya qilinmasligi** belgilab qo'yilganligi;

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 316-27-son (XDFU) va Davaktiv agentligining 31/08-kr-son qarorlariga asosan jamiyatning ma'muriy va ishlab chiqarish binolari Davaktiv agentligi tizimidagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining Toshkent shahar hududiy boshqarmasiga 2021-yil 16-iyundagi topshirish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan 2 786 563 503 so'm 53 tiyinga balans qoldiq qiymatda topshirilganligi;

“Audit Fayir Servis” MChJ tomonidan jamiyatning korporativ boshqaruv tizimi 457 ball (qoniqarli)ga baholanganligi;

“Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi, “Korporativ boshqaruv tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunlariga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son Farmoni hamda 2023-yil 24-martdagi PQ-101-son qarori va Vazirlar Mahkamasining 166-son qarori talablaridan kelib chiqib, jamiyatning ustaviga va ichki me‘yoriy hujjatlariga kiritiladigan o‘zgartirishlar loyihalari ishlab chiqilganligi;

jamiyatning 2022-yil moliya-xo‘jalik faoliyati kuzatuv kengashining 2023-yil 23-iyundagi majlisida ko‘rib chiqilganligi va ma‘qullanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jamiyatning 2022-yil moliya-xo‘jalik faoliyati yakuni, jumladan biznes-reja ko‘rsatkichlari bajarilishi holati to‘g‘risidagi Boshqaruv raisi (Sh. Alimov)ning hisoboti 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ kuzatuv kengashi tarkibiga quyidagilar 3 (uch) yil muddatga saylansin:

1. Kadirxodjayev A‘zam Alisherovich – Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirining o‘rinbosari;

2. Xamidov Sarvar Ibraximovich – Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirining o‘rinbosari;

3. Ozodzoda Sherzod Farxod o‘g‘li – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi sho‘ba mudiri;

4. Nabiyeu To‘lqin Nabiyeuich – Davaktiv agentligi departament boshlig‘i;

5. Axmedov Sharofiddin Shodimurotovich – Davaktiv agentligi bo‘lim boshlig‘i.

4. Jamiyatning operatsion samaradorlikni oshirish, o‘rta va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga muvofiq amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi, yangi tashkiliy tuzilmasi, yangi tarkibdagi taftish komissiyasi a‘zolari 2-4-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

5. Jamiyatning 2022-yil yakunlari bo‘yicha olingan 20 196 897 000 so‘m sof foydasi quyidagicha taqsimlansin:

- 50 foiz (10 098 448 500 so‘m) jamiyat aksiyadorlariga dividend to‘lash uchun;

- 5 foiz (1 009 844 850 so‘m) jamiyat zahira fondiga;

- 10 foiz (2 019 689 700 so‘m) jamiyatning innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga;

- 35 foiz (7 068 913 950 so‘m) keyinchalik jamiyat ustav kapitaliga kapitalizatsiya qilish sharti bilan ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo‘naltirish maqsadida jamiyat ixtiyorida qoldirish.

6. Jamiyatning 2023-yil uchun mo'ljallangan biznes-rejasi jamiyat kuzatuv kengashining 2022-yil 1-dekabrdagi va 2023-yil 23-iyundagi majlislarida ma'qullanganligini inobatga olib, 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Jamiyatning affillangan shaxslari bilan kelgusida jamiyat tomonidan kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlar 6-ilovaga muvofiq ma'qullansin.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi PQ-5083-son, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 316-27-son (XDFU) qarorlari talablaridan kelib chiqib hamda jamiyat kuzatuv kengashining 2022-yil 1-dekabrdagi majlisida ma'qullanganligini inobatga olib:

- jamiyatning ustav fondi umumiy soni 921 064 806 dona egasining nomi yozilgan aksiyalarni bekor qilish yo'li bilan 92 106 480 600 (to'qson ikki milliard bir yuz olti million to'rt yuz sakson ming olti yuz) so'mga kamaytirilsin;

- jamiyatning ustav fondi 709 180 869 200 (yetti yuz to'qqiz milliard bir yuz sakson million sakkiz yuz oltmish to'qqiz ming ikki yuz) so'm miqdorida, nominal qiymati 100 so'm bo'lgan 7 091 808 692 (yetti milliard to'qson bir million sakkiz yuz sakkiz ming olti yuz to'qson ikki) dona oddiy aksiyalarga bo'lgan holda belgilash tasdiqlansin;

- jamiyat tomonidan keyingi ustav fondi ko'paytirilganda yoki kamaytirilganda 96 so'm 47 tiyin davlat aktivi sifatida hisobga olinishi ta'minlansin.

9. Jamiyatining qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi qaroriga kiritilayotgan o'zgartirishlar matni 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. Jamiyatning yangi tahrirda ishlab chiqilgan Ustavi va ichki nizomlari jamiyat kuzatuv kengashining 2023-yil 25-maydagi hamda 2023-yil 23-iyundagi majlislarida ma'qullanganligini inobatga olib, jamiyatning yangi tahrirdagi ustavi 8-ilovaga, "Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida", "Kuzatuv kengashi to'g'risida", "Ijroiya organi to'g'risida", "Kuzatuv kengashi a'zolari va ijroiya organlari vazifasini bajaruvchi shaxslarga hamda boshqaruv organi kotibiga mukofot puli to'lash tartibi to'g'risida", "Homiylik va beg'araz yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Nizomlari 9-13-ilovalarga va "Affillangan shaxslarning hisobini yuritish va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish to'g'risida"gi tartib 14-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash bo'yicha shaxsiy javobgarlik jamiyat Boshqaruv raisi Sh. Alimov zimmasiga yuklansin.

12. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Davaktiv agentligi direktori o'rinbosari A. Miraliyev zimmasiga yuklansin.

Direktor

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT
AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI

ASLIGA TO'G'RI

«25» 07 2023 y.

A. Ortikov